



FARIDA AFRO'Z SHE'RIYATINING G'OYAVIY-BADIIY ASOSLARI VA TIL POETIKASI

Sayfiddinova Mehriqul Mo'minovna

Navoiy davlat universiteti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18495969>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 03-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 05-fevral 2026 yil

KEYWORDS

zamonaviy o'zbek she'riyati, poetika, g'oyaviy-badiiy tahlil, lirik qahramon, ayol ruhiyati, metafora, ramz, timsol, takror, badiiy til, falsafiy mazmun..

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Farida Afro'z ijodining g'oyaviy-badiiy va poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida shoiraning she'riy qarashlari, lirik qahramon obrazining shakllanishi hamda ayol ruhiyatining badiiy ifodasi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Farida Afro'z she'riyati poetikasida til va uslubning o'rni, metafora, ramz, timsol va takrorlarning badiiy vazifasi ochib beriladi. Tahlil asosida shoiraning poetik tili orqali shaxsiy kechinmalar umumiy insoniy va ijtimoiy muammolar darajasiga ko'tarilishi ilmiy asosda yoritiladi.

Farida Afro'z she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiyati, ma'naviy iztiroblar va jamiyatdagi ma'naviy tanazzulni badiiy talqin qilishda o'ziga xos poetik makon yaratgan hodisalardan biridir. Shoira ijodiy qarashlarining markazida inson va uning ichki olami, e'tiqod va vijdon, haqiqat va yolg'on, vafodorlik va xiyonat kabi qarama-qarshi tushunchalar turadi. Farida Afro'z she'rlarida bu masalalar quruq pand-nasihat shaklida emas, balki lirik qahramonning chuqur ichki kechinmalari, iztirob va ruhiy kurashlari orqali ifodalanadi. Uning she'riyati o'quvchini bevosita fikrlashga, o'z hayotiga tanqidiy nazar tashlashga undaydi.

Asosiy qisim

Shoiraning ijodiy qarashlarida zamon va inson o'rtasidagi murakkab munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Quyida uning "Ona yer – tufroq qolib, osmon bilan ovvoramiz", "Men o'zi kimman" - deb boshlanuvchi she'rini tahlil qilamiz.

Ona yer – tufroq qolib, osmon bilan ovvoramiz,
Jon berib, joning olar, jonon bilan ovvoramiz.
Ko'zlaringga jovdirar, sarson visol, sargashta ishq,
Yosh to'kib, yirtib yaqo, hijron bilan ovvoramiz.

Tegramizda hur malaklar, biri singil, biri yor,
Insof qolib, inson qolib, shayton bilan ovvoramiz.
Otamiz mezbon edi, oh, onamiz mezbon erur,
Zor etib har ikkisin, mehmon bilan ovvoramiz.

Har nafas yoningda dildosh, har mushkulotingga yechim,
Yaxshilar bunda qolib, yomon bilan ovvoramiz.
Chin haqiqat yo'li boshqa, chin vafolik o'zgardir,
Haq qolib, Haqqon qolib, yolg'on bilan ovvoramiz.

Ko'ngli ummon kimsalarning jilg'asidan suv ichib,
Roz qolib, shukron qolib, to'g'on bilan ovvoramiz.
Har kishiki, ko'zi ochdir, ko'r qilar, to'zoni ganj,
Yo'l ko'rsatar sarbon qolib, karvon bilan ovvoramiz.

Bizni Haq hur ayladi, nur ayladi, ozod etib,
Har tarafga qulf urib, qo'rg'on bilan ovvoramiz.
Kimki bizga intizordir, Farid Afro'z chin so'zim,
Jonim nisor, chin do'st uchun qurbon bilan ovvoramiz [4]

Tahlil qilinayotgan she'rda bu holat birinchi misralardan oq yaqqol seziladi: "Ona yer – tufroq qolib, osmon bilan ovvoramiz," Bu misralarda shoiraning g'oyaviy pozitsiyasi ochiq namoyon bo'ladi. "Ona yer" timsoli hayot, asl ildiz, insoniyatning manbai sifatida talqin etilsa, "osmon bilan ovvoralik" esa insonning asliyatdan uzoqlashib, mavhum, sun'iy orzularga berilib ketgan holatini ifodalaydi. Shoira bu orqali zamonaviy insonning real hayotdan, qadriyatlardan begonalashib borayotganini badiiy umumlashtiradi. Keyingi misra – "Jon berib, joning olar, jonon bilan ovvoramiz" – esa insoniy munosabatlardagi manfaatparastlik, soxta muhabbat va qurbonlikning ma'nosizlashib borishini ochib beradi. Farida Afro'z she'riyatidagi yetakchi mavzulardan biri -ishq va hijron, ammo bu ishq an'anaviy romantik talqinda emas, balki ruhiy azob, sarsonlik va ma'naviy iztirob manbai sifatida namoyon bo'ladi. "Ko'zlaringga jovdirar, sarson visol, sargashta ishq" misralarida ishq timsoli tinchlik emas, balki beqarorlik va adashuv sifatida talqin etiladi. Shoira ishqni insonni poklovchi kuch sifatida emas, balki uni ichki kurashga majbur qiluvchi holat sifatida ko'rsatadi. Bu esa shoiraning hayotiy realizmga tayangan ijodiy qarashlaridan dalolat beradi. Lirik qahramon obraziga e'tibor qaratilganda, u alohida shaxs emas, balki jamiyatni ifodalovchi umumlashgan obraz ekanini ko'ramiz. She'r davomida doimiy ravishda "biz" zamirining qo'llanishi bu fikrni yanada mustahkamlaydi. Lirik qahramon o'zini jamiyatdan ajratmaydi, aksincha, jamiyatning ma'naviy xatolarini o'z zimmasiga olib, ularni ichki iztirob bilan ifodalaydi. "Insof qolib, inson qolib, shayton bilan ovvoramiz" satrlari insoniy fazilatlarining yo'qolib borishi, nafs va shaytoniy xohishlarning ustuvorlik kasb etayotganini fosh etadi. Bu yerda shoiraning tanqidiy ruhiyati, ma'naviy ogohlantirishi kuchli seziladi. Farida Afro'z she'riyatida ota-ona timsoli ham muhim g'oyaviy yukni ko'taradi. "Otamiz mezbon edi, oh, onamiz mezbon erur" misralarida ota-ona muqaddaslik ramzi sifatida berilgan bo'lsa, "Zor etib har ikkisin, mehmon bilan ovvoramiz" satrida insonning begonalarga ortiqcha e'tibor berib, eng yaqinlarini unutib qo'yayotgani tanqid qilinadi. Bu holat zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy muammolarning poetik ifodasidir. Shoira bu orqali oilaviy qadriyatlarning zaiflashib borayotganiga achinish bilan qaraydi. She'r davomida lirik qahramonning ichki kechinmalari tobora chuqurlashib boradi. "Har nafas yoningda dildosh, har mushkulotingga yechim" kabi misralar insonning hayotda haqiqiy suyanchga ega ekanini, ammo shunga qaramay noto'g'ri tanlov qilayotganini ko'rsatadi. "Yaxshilar bunda qolib, yomon bilan ovvoramiz" degan satr esa insonning ongli ravishda

ezgulikdan yuz o'girib, yovuzlikka ergashayotganini ifodalaydi. Bu lirik qahramonning iztirobli iqrorida.

Men o'zi kimman
tashlandiq quduq,
yomg'irlarning esidan chiqqan,
baliqlari tashna,

jon bergan,
qamishlari o'yib naylangan
tashlandiq quduq.
Sen o'zi kimsan,

suvga cho'kkan tosh,
qoyalarning yodi o'chirgan,
zilzilada to'qilgan duv-duv,
cho'qqilardan mangu haydalgan

suvga cho'kkan tosh.
Ishq o'zi nima,
eski tegirmon,
dunyolarning xotirida yo'q,

boyo'g'lilar in qurgan unda,
shapalaklar yayragan makon,
ikkimizni donday yanchigan
eski tegirmon. [4]

Men o'zi kimman tashlandiq quduq, yomg'irlarning esidan chiqqan, baliqlari tashna, jon bergan, qamishlari o'yib naylangan tashlandiq quduq. Sen o'zi kimsan, suvga cho'kkan tosh, qoyalarning yodi o'chirgan, zilzilada to'qilgan duv-duv, cho'qqilardan mangu haydalgan suvga cho'kkan tosh. Ishq o'zi nima, eski tegirmon, dunyolarning xotirida yo'q, boyo'g'lilar in qurgan unda, shapalaklar yayragan makon, ikkimizni donday yanchigan eski tegirmon.

Farida Afro'z she'riyatida ayol ruhiyati alohida noziklik bilan tasvirlanadi. Shoira ayol qalbidagi sezgirlik, vijdon, mehr va dardni umumiy insoniy muammolar bilan uyg'un holda beradi. Uning lirik qahramoni ayol sifatida jamiyatdagi nosog'lom holatlarga befarq qaray olmaydi, balki ularni yuragi bilan his etadi. "Chin haqiqat yo'li boshqa, chin vafolik o'zgadir" misralari ayolona teranlik va ma'naviy sezgirlik mahsulidir. Shoira haqiqat va vafoning faqat so'zda emas, amalda bo'lishi kerakligini uqtiradi. She'rdagi diniy-falsafiy qatlam ham muhim o'rin tutadi. "Haq qolib, Haqqon qolib, yolg'on bilan ovvoramiz" satrlari insonning ilohiy haqiqatdan uzoqlashib, yolg'on va riyo bilan yashayotganini keskin tanqid qiladi. Bu misralar orqali shoira e'tiqodga asoslangan dunyoqarashi namoyon bo'ladi. U Haqni nafaqat diniy tushuncha, balki adolat va vijdon mezoni sifatida talqin etadi. Ayol ruhiyati she'rning keyingi misralarida ham chuqur aks etadi. "Ko'ngli ummon kimsalarning jilgasidan suv ichib" satrida inson imkoniyatlarining torayib borishi, buyuklikdan maydaga tushib qolish holati ramziy

ifodalanadi. Bu yerda shoironing badiiy tafakkuri nihoyatda teran: ummon va jilg'a qarama-qarshiligi orqali inson ruhining pasayishi tasvirlanadi. She'r yakuniga yaqin lirik qahramonning ogohlantiruvchi ohangi kuchayadi. "Bizni Haq hur ayladi, nur ayladi, ozod etib" degan satrlar insonning aslida erkin va sharafli yaratilganini eslatadi. Ammo "Har tarafga qulf urib, qo'rg'on bilan ovvoramiz" misrasi bu erkinlikning o'zimiz tomonidan cheklanayotganini ko'rsatadi. Shoira bu orqali insonning o'z qo'li bilan o'zini qafasga solayotganini ochib beradi. She'rning so'nggi misralarida shoironing shaxsiy ovozi yanada aniqroq seziladi: "Kimki bizga intizordir, Farid Afro'z chin so'zim". Bu yerda shoira o'zini lirik qahramondan ajratmaydi, balki o'z so'ziga mas'uliyat bilan yondashayotgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. "Jonim nisor, chin do'st uchun qurbon bilan ovvoramiz" satrlari esa sadoqat, do'stlik va fidoyilik g'oyalarining hanuz tirik ekanini ko'rsatadi.

Farida Afro'z she'riyati poetikasining eng muhim jihatlaridan biri -badiiy tasvir vositalarining chuqur ramziy ma'noga ega bo'lishi va ular orqali inson ruhiy holatini ifodalashdir. Shoira tilni bezak uchun emas, balki ma'no yuklash, ruhiy holatni ochish vositasi sifatida ishlatadi. Tahlil qilinayotgan she'rda bu xususiyat ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. She'r boshidan oxirigacha ramzlar tizimi asosida qurilgan bo'lib, har bir obraz inson ruhiyatidagi muayyan holatni ifodalaydi.

She'r "Men o'zi kimman" degan savol bilan boshlanadi. Bu savol oddiy o'zini tanishtirish emas, balki mavjudlik, shaxsiyat va o'zlikni anglash bilan bog'liq falsafiy savoldir. Shoira bu savolga an'anaviy ta'rif bermaydi, aksincha, o'zini "tashlandiq quduq" ramzi orqali ifodalaydi. Quduq -odatda hayot, suv, manba timsoli bo'lsa, "tashlandiq quduq" hayotdan uzilgan, keraksizga aylangan, unutilgan ruhiy holatni anglatadi. "Yomg'irlarning esidan chiqqan" degan birikma esa bu unutilganlikning yanada chuqurroq darajasini ko'rsatadi: tabiatning o'zi ham bu quduqni unutilgan. Bu o'rinda tilning hissiy-ta'sirchanligi nihoyatda kuchli bo'lib, birgina metafora orqali lirik qahramonning ichki bo'shlig'i, tashnaligi ifodalanadi. She'rda ishlatilgan "baliqlari tashna, jon bergan" kabi obrazlar poetik paradoks yaratadi. Odatda baliq suvda yashaydi, ammo bu yerda u tashna va jon bergan. Bu holat shoironing poetik mahoratini ko'rsatadi: tiriklik manbai bo'lishi kerak bo'lgan joyda hayotning o'zi nobud bo'lgan. "Qamishlari o'yib naylangan" misrasi esa iztirobning ovozga aylanganini bildiradi. Nay -dard va fig'on asbobi, qamishning o'yilishi esa og'riq orqali san'at tug'ilishini anglatadi. Demak, lirik qahramon azob orqali so'zlaydi. Ikkinchi qismda "Sen o'zi kimsan" degan savol qo'yiladi va u "suvga cho'kkan tosh" obrazi bilan javoblanadi. Tosh -sovuqlik, qattqlik, befarqlik timsoli, suvga cho'kishi esa tubanlik, chuqurlikka botish ramzi sifatida talqin qilinadi. "Qoyalarning yodi o'chirgan" degan satr bu obrazni yanada kuchaytiradi: tosh ham asl manbaini, kelib chiqishini unutilgan. Bu yerda shoira ikki shaxs -"men" va "sen"ni qarama-qarshi emas, balki bir-biriga yaqin ruhiy holatlarda tasvirlaydi. Har ikkisi ham o'z o'rnini yo'qotgan, mavjudlikdan chetga surilgan.

Til va uslub nuqtayi nazaridan she'rda takrorlar alohida poetik vazifa bajaradi. "Tashlandiq quduq", "suvga cho'kkan tosh", "eski tegirmon" iboralari har bir qism oxirida takrorlanib, ritmik va semantik markaz vazifasini bajaradi. Bu takrorlar she'rning musiqiylikni kuchaytirish bilan birga, asosiy ramzlarni o'quvchi ongiga muhrlaydi. Farida Afro'z poetikasida takror shunchaki shakliy unsur emas, balki ma'no chuqurlashtiruvchi vositadir. Uchinchi qismda "Ishq o'zi nima" degan savol qo'yiladi. Shoira ishqni ideal, poklovchi kuch sifatida emas, balki "eski tegirmon" obrazi orqali ifodalaydi. Tegirmon -aylanish, takror, yanchish ramzi bo'lib,

bu yerda ishq ikki insonni “donday yanchigan” kuch sifatida talqin etiladi. “Boyo’g’lilar in qurgan”, “shapalaklar yayragan makon” kabi obrazlar ishqning tashlandiq, qorong’i va umidsiz holatini ko’rsatadi. Bu yerda shoironing poetik tili nihoyatda keskin va ta’sirchan bo’lib, romantik an’analarini inkor etuvchi zamonaviy talqinni yuzaga chiqaradi.

She’r tilida sodda, kundalik so’zlar bilan chuqur falsafiy mazmun berilishi Farida Afro’z uslubining muhim belgilaridan biridir. Shoira murakkab badiiy konstruktsiyalardan qochadi, ammo har bir so’z ko’p qatlamli ma’noga ega. Quduq, tosh, tegirmon -barchasi xalqona, tanish obrazlar bo’lsa-da, ular yangi poetik kontekstda mutlaqo boshqa ma’nolarni kasb etadi. Bu holat shoironing til bilan ishlash mahoratini ko’rsatadi. She’rning ritm va ohangi ham mazmunga mos ravishda og’ir, sokin va iztirobli. Qisqa satrlar, pauzalar, keskin ajralishlar lirik qahramonning ichki bo’linishini ifodalaydi. Musiqiylik bu yerda ohangdorlik emas, balki ruhiy bosim va sokin fig’on shaklida namoyon bo’ladi. Shoira o’quvchini baland hayajon bilan emas, ichki sukut orqali larzaga solidi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Farida Afro’z she’riyati zamonaviy o’zbek adabiyotida g’oyaviy-badiiy teranlik, falsafiy mushohada va yuksak poetik mahorat uyg’unligini namoyon etuvchi muhim ijodiy hodisa sifatida baholanadi. Shoironing ijodiy qarashlarida inson va jamiyat o’rtasidagi murakkab ma’naviy munosabatlar lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ochib beriladi. Bu kechinmalar shaxsiy dard yoki individual iztirob doirasida qolmay, jamiyatning umumiy ma’naviy holatini, e’tiqod, vijdon, haqiqat va insoniylik mezonlarining zamonaviy talqinini ifodalaydi. Ayniqsa, ayolona sezgirlik va ruhiy noziklik orqali berilgan poetik mushohadalar shoironing badiiy dunyoqarashini yanada teranlashtiradi. Farida Afro’z she’riyati poetikasida til va uslub markaziy o’rin tutib, ular inson ruhiyatini ochishga to’liq bo’ysundiriladi. Metafora, ramz, timsol va takrorlar orqali “men”, “sen” va “ishq” kabi asosiy tushunchalar an’anaviy romantik yoki soddalashtirilgan talqindan chiqarilib, zamonaviy, iztirobli va falsafiy mazmunda qayta talqin etiladi. Shoira badiiy til yordamida shaxsiy kechinmalarni umumiy insoniy muammolar darajasiga ko’tara oladi hamda o’quvchini o’z ichki dunyosi bilan yuzlashtiradi. Natijada Farida Afro’z she’riyati nafaqat estetik zavq bag’ishlaydi, balki ma’naviy uyg’otuvchi, fikrlashga undovchi kuchga ega bo’lib, uning poetik merosining badiiy va falsafiy qimmatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo’ladi.

Foydalanga adabiyotlar:

1. Липгард Ф.Ф. Основы лингвопоэтики. Либроком. 2016.
2. Yo’ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - Toshkent: Fan, 2007.
3. Karimov S. O`zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fanlari d-ri....dis. – Samarqand, 1993.
4. Farida Afro’z (1956). Ziyo.uz